

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 974,3 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 16,3 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 473,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,6%), qishloq aholisi soni 501,2 ming kishini yoki (51,4 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **16,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **22,3 ming nafami** tashkil etdi.
- **4,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **9,3 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)

Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi  
(2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Tirik tug'ilganlar  
22,3 ming bola

Tabiiy  
o'sish  
18,0  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
16,3  
ming kishi

Ko'chib kelganlar  
13,6 ming kishi


Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
-1,1  
ming kishi

Vafot etganlar  
4,3 ming kishi

Ko'chib ketganlar  
14,7 ming kishi


## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 195,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) va Qiziltepa tumanida 149,2 ming kishini yoki (15,3 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,5 ming kishini yoki (1,5 %) va Konimex tumanida 30,0 ming kishini yoki (3,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Xatirchi tumanida 1,9 %ni, Qiziltepa tumanida 1,6 %ni, Karmana tumanida 3,4%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Navoiy shaxrida 0,7 %ni va Konimex tumanida 1,0 %ni, tashkil etdi.




**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.**  
*(2019 yil 1 yanvar holatiga)*

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>1 km kv ga to'g'ri keladi- ganlar soni</i>
		<i>Shahar ahol- isi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>974304</b>	<b>473 147</b>	<b>501 157</b>	<b>8,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	136 379	136 379	-	2646,6
Zarafshon	82 467	82 467	-	3868,1
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	127 613	44176	83437	134,0
Konimex	29 979	10 654	19 325	3,3
Qiziltepa	149 258	47 824	101 434	68,3
Navbahor	110 724	16 007	94 717	70,5
Nurota	91 010	54 022	36 988	13,9
Tomdi	14 475	4693	9 782	0,3
Uchquduq	37 133	32 272	4 861	0,8
Xatirchi	195 266	44 653	150 613	137,7

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga aholining ehg ko'p shahar joylardagi ulushu Uchquduq tumanida 86,9% ni, va Nurota tumanida 59,4 %ni, aksincha eng kam aholi soni Navbahor tumanida 14,5 %ni, va Xatirchi tumanida 22,9 %ni tashkil etdi.

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga aholining ehg ko'p qishloq joylardagi ulushu Navbahor tumanida 85,5 %ni, va Xatirchi tumanida 77,1 %ni, aksincha eng kam aholi soni Nurota tumanida 40,6 %ni, va Uchquduq tumanida 13,1 %ni tashkil etdi.



## Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-dekabrdagi


	kishi			har 1000 kishiga	
	2017 y.	2018 y. <sup>1)</sup>	o'sish, kamayish	2017 y.	2018 y. <sup>1)</sup>
<b>Tug'ilganlar</b>	20563	21541	978	21,6	22,3
<b>O'lganlar</b>	4472	4160	-312	4,7	4,3
<b>Tabiiy o'sish</b>	16091	17381	1290	16,9	18,0
<b>Nikohlar</b>	8925	9012	87	9,4	9,3
<b>Ajralishlar</b>	1115	997	-118	1,2	1,0

Tug'ilishlar soni 21541 kishi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 978 kishiga o'sganligini ko'rsatmoqda.

O'lganlar soni 4160 kishi, 2017 yilning mos davriga nisbatan -312 kishiga kamayganligi kuzatildi.

Nikohlar soni esa 9012 kishi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 87 kishiga oshganligi kuzatildi.

Ajrimlar soni 997 kishi, 2017 yilning mos davriga nisbatan -118 kishiga kamayganligi kuzatildi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida

21541 bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 21,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Tomdi (14,1 promilledan 16,0 promillega) va Xatirchi (23,3 promilledan 24,3 promillega), Konimex (21,2 promilledan 22,3 promillega), Qiziltepa (20,0 promilledan 21,7 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Karmana (23,3 promilledan 22,0) Uchquduq (24,5 promilledan 23,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-dekabrdagi

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yini 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:  
10640  
nafar



O'g'il bolalar:  
10901  
nafar

	Tug'ilganlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>20563</b>	<b>21541</b>	<b>104,8</b>
<b>Navoiy sh.</b>	2707	2894	106,9
<b>Zarafshon sh.</b>	1733	1748	100,9
<b>Konimex</b>	628	666	106,0
<b>Qiziltepa</b>	2920	3213	110,0
<b>Navbahor</b>	2271	2350	103,5
<b>Karmana</b>	2832	2765	97,6
<b>Nurota</b>	1943	2109	108,5
<b>Tomdi</b>	204	230	112,7
<b>Uchquduq</b>	898	873	97,2
<b>Xatirchi</b>	4427	4693	106,0

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 4160 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylari da 4,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Tomdi tumanida (4,4 promilledan 4,5 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navoiy shaxrida (5,3 promilledan 4,8 promillega) Konimex (7,2 promilledan 5,0 promillega), Navbaxor (4,5 promilledan 3,9 promillega) Karmana (5,2 promilledan 4,7 promillega), Uchquduq (4,5 promilledan 3,6 promillega) va Xatirchi (4,3 promilledan 4,1 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** **Ayollar:**  
2181 1979 ki-  
kishi shi

### Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-dekabrdagi

	O'lganlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati %
<b>Navoiy viloyati</b>	4472	4160	93,0
<b>Navoiy sh.</b>	719	657	91,4
<b>Zarafshon sh.</b>	297	305	102,7
<b>Konimex</b>	212	149	70,3
<b>Qiziltepa</b>	618	590	95,5
<b>Navbahor</b>	484	431	89,0
<b>Karmana</b>	632	589	93,2
<b>Nurota</b>	454	456	100,4
<b>Tomdi</b>	64	65	101,6
<b>Uchquduq</b>	165	133	80,6
<b>Xatirchi</b>	827	785	94,9


## Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,0 %i o'simtalardan, 8,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 62,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 20,1 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 10,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 18,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 16,9 ming kishini ko'rsatmoqda.



Tabiiy o'sish:  
16,2 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navbaxor (108,5%), Nurota (109,9%), Uchquduq (105,3%), Tomdi (102,2%), tumalariga to'g'ri kelmoqda.



### Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-dekabrdagi sur'atlari

	Tuzilgan nikohlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>8925</b>	<b>9012</b>	<b>101,0</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>1232</b>	<b>1215</b>	<b>98,6</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>568</b>	<b>593</b>	<b>104,4</b>
<b>Konimex</b>	<b>228</b>	<b>230</b>	<b>100,9</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>1471</b>	<b>1357</b>	<b>92,3</b>
<b>Navbahor</b>	<b>1012</b>	<b>1117</b>	<b>110,4</b>
<b>Karmana</b>	<b>1235</b>	<b>1236</b>	<b>100,1</b>
<b>Nurota</b>	<b>811</b>	<b>900</b>	<b>111,0</b>
<b>Tomdi</b>	<b>65</b>	<b>66</b>	<b>101,5</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>278</b>	<b>295</b>	<b>106,1</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>2025</b>	<b>2003</b>	<b>98,9</b>

## Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-dekabrda

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (142,9%), tu-maniga to'g'ri kelmoqda.

	<b>Nikohdan ajralishlar</b>		
	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>O'sish sur'ati (%) da</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1115</b>	<b>997</b>	<b>89,4</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>274</b>	<b>251</b>	<b>91,6</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>135</b>	<b>109</b>	<b>80,7</b>
<b>Konimex</b>	<b>28</b>	<b>25</b>	<b>89,3</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>118</b>	<b>118</b>	<b>100,0</b>
<b>Navbahor</b>	<b>100</b>	<b>98</b>	<b>98,0</b>
<b>Karmana</b>	<b>174</b>	<b>121</b>	<b>69,5</b>
<b>Nurota</b>	<b>48</b>	<b>48</b>	<b>100,0</b>
<b>Tomdi</b>	<b>7</b>	<b>10</b>	<b>142,9</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>59</b>	<b>53</b>	<b>89,8</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>172</b>	<b>164</b>	<b>95,3</b>



**Aholi migratsiyasi (kishida)**

	<b>2017 yil yanvar-dekabr</b>	<b>2018 yil yanvar-dekabr</b>
<b>Ko'chib kelganlar</b>	13047	13145
<b>Ko'chib ketganlar</b>	13887	14250
<b>Migratsiya saldozi</b>	-840	-1105



## Demografik holat

	Aholi migratsiyasi (kishida)		
	2017 yil Ko'chib kelganlar	2018 yil ko'chib kelganlar	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>13047</b>	<b>13145</b>	<b>100,8</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>3017</b>	<b>2907</b>	<b>96,4</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>2631</b>	<b>1669</b>	<b>63,4</b>
<b>Konimex</b>	<b>381</b>	<b>333</b>	<b>87,4</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>612</b>	<b>697</b>	<b>113,9</b>
<b>Navbahor</b>	<b>790</b>	<b>1025</b>	<b>129,7</b>
<b>Karmana</b>	<b>2309</b>	<b>3342</b>	<b>144,7</b>
<b>Nurota</b>	<b>693</b>	<b>670</b>	<b>96,7</b>
<b>Tomdi</b>	<b>177</b>	<b>337</b>	<b>190,4</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>1178</b>	<b>888</b>	<b>75,4</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>1259</b>	<b>1277</b>	<b>101,4</b>

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga kuchib kelgan yuqori bolgan tumanlar 2017 yilning mos davriga nisbatan Tomdi tumanida 190,4%ni, Navbahor tumanida 129,7%ni, Karmana tumanida 144,7%ni, Qiziltepa tumanida 113,9%ni, aksincha eng kam ko'chib kelganlar bo'yicha Zarafshon shahrida 63,4%ni, Konimex tumanida 87,4%ni, va Uchquduq tumanida 75,4%ni tashkil etdi.

	Aholi migratsiyasi (kishida)		
	2017 yil Ko'chib ketganlar	2018 yil ko'chib ketganlar	O'sish sur'ati (%) da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>13887</b>	<b>14250</b>	<b>102,6</b>
<b>Navoiy sh.</b>	3570	4313	120,8
<b>Zarafshon sh.</b>	2100	2072	98,7
<b>Konimex</b>	663	583	87,9
<b>Qiziltepa</b>	983	869	88,4
<b>Navbahor</b>	896	849	94,8
<b>Karmana</b>	1158	1330	114,9
<b>Nurota</b>	864	779	90,2
<b>Tomdi</b>	501	365	72,9
<b>Uchquduq</b>	1239	1438	116,1
<b>Xatirchi</b>	1913	1652	86,4

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga kuchib ketgan yuqori bolgan tumanlar 2017 yilning mos davriga nisbatan Navoiy shahrida 120,8%ni, Karmana tumanida 114,9%ni, Uchquduq tumanida 116,1%ni, aksincha eng kam ko'chib ketganlar bo'yicha Tomdi tumanida 72,9%ni, Xatirchi tumanida 86,4%ni, tashkil etdi.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
Nashr uchun mas'ul: **I.Alimov**